lajak mutaxassislarning xorijiy tilda samarali kasbiy muloqot olib borish kompetensiyasini rivojlantirish uchun mustahkam metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur tadqiqot natijalari kelgusida raqamli pedagogika, adaptiv ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun ham nazariy va amaliy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб. пособие для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров. Е.С.Полат, М.Ю.Бухаркина, М.В.Моисеева, А.Е. Петров. Под ред. Е.С.Полат. М., издательский центр «Академия», 1999, 224 с.

(2). Ларсон Р. Преподавание английского языка в эпоху цифровых технологий. М., “Просвещение”, 2020, с. 87–129.

(3). Melis E., Andrès E., Büdenbender J., Frishauf A., Goguadse G., Libbrecht P., Pollet M., Ullrich C. (2001). ActiveMath: A web-based learning environment. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 12(4), p. 385–407.

(4). Нургелдиева М., Садиева А., Преподавание английского языка в цифровую эпоху: интеграция технологий в обучение языку. Международный научный журнал “Символ науки”, 9-1-1/2024, с. 80–82.

(5). Солдаткин В.И. Электронная педагогика: основания и проблемы. “Байкальский психологический и педагогический журнал”, 2003, № 1, с. 61–70.

(6). Нургелдиева М., Садиева А. Преподавание английского языка в цифровую эпоху: интеграция технологий в обучение языку. Международный научный журнал “Символ науки”, ISSN:2410-700x, 9-1-1/ 2024, с. 80–82.

Nursulton Zamon o‘g‘li Shayxislamov (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti Turizm fakulteti dekani o‘rinbosari, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEK TILIDA AFFIKSLARNING SEMANTIK YAQINLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi affikslarning semantik yaqinligi struktur-semantik va funksional yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi bir xil yoki yaqin derivatsion hamda grammatik ma’nolarni ifodalovchi affikslarning semantik va funksional xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida affikslarning qo‘llanish doirasi, uslubiy differensiatsiyasi va so‘z yasashdagi mahsuldorligi ilmiy misollar asosida yoritiladi. Tahlillar affikslar o‘rtasidagi semantik yaqinlik mutlaq emasligini, ularning qo‘llanishi leksik, uslubiy va pragmatik omillar bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Olingan natijalar o‘zbek tili morfologiyasi va derivatsion lingvistikasida affikslarning semantik munosabatlarini yoritishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *affiks, sinonimiya, affiks sinonimiyasi, derivatsiya, struktur-semantika, funksional grammatika, so‘z yasalishi, morfologiya, uslubiy differensiatsiya, mahsuldor affiks, semantik maydon, funksional tahlil.*

Нурсултон Замон угли Шайхисламов (заместитель декана факультета туризма Чирчикского государственного педагогического университета, доктор философии по педагогическим наукам)

СЕМАНТИЧЕСКАЯ БЛИЗОСТЬ АФФИКСОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье семантическая близость аффиксов узбекского языка рассматривается с позиций структурно-семантического и функционального подходов. Цель исследования заключается в выявлении семантических и функциональных особенностей аффиксов, выражающих одинаковые или близкие словообразовательные и грамматические значения. В работе анализируется сфера их употребления, стилистическая дифференциация и продуктивность в словообразовании на основе языковых примеров. Результаты исследования показывают, что семантическая близость аффиксов не является абсолютной и определяется лексическими, стилистическими и прагматическими факторами. Полученные выводы способствуют дальнейшему изучению семантических отношений аффиксов в морфологии и деривatологии узбекского языка.*

Ключевые слова: *аффикс, семантическая близость, деривация, структурная семантика, функциональная грамматика, словообразование, морфология, стилистическая дифференциация, продуктивный аффикс, семантическое поле, функциональный анализ.*

Nursulton Zamon ugli Shaykhislamov (Deputy Dean of the Faculty of Tourism, Chirchiq State Pedagogical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences)

SEMANTIC SIMILARITY OF AFFIXES IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation. *This article analyzes the semantic similarity of affixes in the Uzbek language from structural-semantic and functional perspectives. The study aims to identify the semantic and functional*

characteristics of affixes expressing identical or similar derivational and grammatical meanings. The research examines their scope of use, stylistic differentiation, and productivity in word formation through linguistic examples. The findings show that semantic similarity among affixes is not absolute; rather, their use is determined by lexical, stylistic, and pragmatic factors. The results contribute to the study of semantic relations among affixes in Uzbek morphology and derivational linguistics.

Keywords: *affix, semantic similarity, derivation, structural semantics, functional grammar, word formation, morphology, stylistic differentiation, productive affix, semantic field, functional analysis.*

Kirish. O‘zbek tilining agglutinativ tuzilishi affikslarning morfologik va derivatsion tizimda muhim o‘rin egallashini ta’minlaydi. Affikslar yangi so‘z yasash, grammatik ma’nolarni ifodalash hamda tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim affikslar ma’no yaqinligi asosida o‘zaro sinonimik munosabat hosil qilib, bir xil yoki yaqin semantik vazifalarni turli uslubiy va funksional vositalar orqali ifodalash imkonini yaratadi. Mazkur hodisa o‘zbek tili derivatsion tizimining muhim xususiyatlaridan biri sanaladi [1;3-b.].

Affiks sinonimiyasi bir xil yoki yaqin ma’noni ifodalovchi affikslarning semantik, uslubiy va funksional jihatdan o‘zaro munosabatini anglatadi. Bunday affikslar mutlaq ma’nodosh bo‘lmay, ularning qo‘llanishi so‘zning leksik ma’nosi, nutq uslubi, kommunikativ vaziyat va adabiy til me’yorlari bilan belgilanadi. Masalan, *-li* va *-dor* (mazmunli – mazmundor), *-siz* va *be-* (foydasiz – befoyda) affikslari ayrim ma’no maydonlarida yaqinlik hosil qilsa-da, ularning qo‘llanish doirasi va semantik nozikliklari bir xil emas [2;5-b.].

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida affikslarning morfologik va derivatsion xususiyatlari keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ularning sinonimik munosabatlari, semantik differensiatsiyasi va funksional chegaralari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa affiks sinonimiyasini struktur-semantik va funksional nuqtayi nazardan o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilidagi sinonim affikslarning struktur-semantik xususiyatlarini, ularning funksional imkoniyatlari hamda qo‘llanish mezonlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari o‘zbek tili morfologiyasi va derivatsion tizimida affiks sinonimiyasining o‘rni hamda ahamiyatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi [4;6-b.].

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida affikslarning morfologik tabiati, derivatsion imkoniyatlari va semantik xususiyatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning sinonimik munosabatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Mavjud ilmiy ishlarda bu masala asosan so‘z yasalishi va grammatik ma’no bilan bog‘liq holda tahlil qilingan [1;3-b.].

A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev va A.Nurmonovning tadqiqotlarida affikslarning grammatik vazifalari, mahsuldorligi hamda derivatsion tizimdagi o‘rni izohlangan. Mazkur ishlarda ayrim affikslarning ma’no yaqinligi qayd etilgan bo‘lsa-da, ularning sinonimik xususiyatlari, semantik chegaralari va funk-sional tafovutlari maxsus tadqiq etilmagan [1;2;3]. N.Mahmudov va Sh.Safarov esa til birliklarining uslubiy hamda pragmatik xususiyatlarini yoritib, affikslarning nutqiy vaziyatga bog‘liq holda tanlanishini asoslab berganlar [4;5].

Xorijiy tilshunoslikda G.Boij, R.Liyeber va J.Baybe derivatsion morfologiya doirasida affikslarning semantik va funksional xususiyatlarini tadqiq etganlar. Ularga ko‘ra, ma’no jihatdan yaqin affikslar mutlaq sinonim bo‘lmay, qo‘llanish muhiti, mahsuldorligi va uslubiy xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi [8;9;11].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda o‘zbek tilidagi sinonim affikslarning struktur-semantik va funksional xususiyatlarini aniqlash maqsadida tavsifiy, struktur-semantik, komponent tahlil hamda funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Affikslarning o‘zaro sinonimik munosabatlari ularning semantik yaqinligi, derivatsion imkoniyatlari, qo‘llanish muhiti va uslubiy xususiyatlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, sinonim affikslarning nutqdagi funksional farqlarini aniqlashda qiyosiy kuzatish usulidan ham foydalanildi.

Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanayotgan affiksli birliklar tanlab olindi. Tahlil jarayonida sinonim affikslarning ma’no hajmi, qo‘llanish doirasi va funksional faolligi o‘zaro taqqoslanib, ularning umumiy hamda farqli jihatlari ilmiy asosda baholandi. Olingan natijalar affiks sinonimiyasining morfologik tizimdagi o‘rnini hamda zamonaviy o‘zbek tilidagi funksional xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi [2;6-b.].

Tahlil va natijalar. O‘zbek tilida affiks sinonimiyasi bir xil yoki o‘zaro yaqin derivatsion ma’noni ifodalovchi affikslarning semantik va funksional munosabatlari asosida yuzaga keladi. Bunday affikslar barcha nutqiy vaziyatlarda bir-birini to‘liq almashtira olmaydi. Ularning qo‘llanishi so‘zning leksik ma’-

nosi, uslubiy xususiyati va til me'yorlari bilan belgilanadi. Shu bois affiks sinonimiyasini mutlaq emas, balki nisbiy sinonimiya sifatida baholash maqsadga muvofiqdir [3;6-b.].

O'zbek tilida *-li* va *-dor* affikslari predmet yoki shaxsning muayyan belgi va xususiyatga egaligini ifodalashda ma'no jihatdan yaqinlashadi. Masalan, *mazmunli nutq* va *mazmundor nutq*, *ma'noli asar* va *ma'nodor asar* bir xil semantik maydonga mansub bo'lsa-da, ularning uslubiy qiymati bir xil emas. *-li* affiksi umumiste'mol va neytral uslubda faol qo'llansa, *-dor* affiksi ko'proq badiiy hamda publitsistik nutqda ifodaviylikni kuchaytiradi. Shuning uchun mazmundor maqola birikmasi ilmiy va publitsistik uslubda tabiiyroq eshitilsa, mazmunli maqola kengroq qo'llanish doirasiga ega. Demak, mazkur affikslar semantik yaqinlikka ega bo'lsa-da, ularning funksional imkoniyatlari farqlanadi [1;5-b.].

Sinonimik munosabat *-lik* va *-chilik* affikslari o'rtasida ham kuzatiladi. Har ikkala affiks abstrakt tushunchalarni hosil qilishda ishtirok etadi, biroq ularning derivatsion faolligi bir xil emas. *-lik* affiksi umumiy grammatiklashgan vosita sifatida keng qo'llanadi (do'stlik, yoshlik, insoniylik), *-chilik* esa ko'proq faoliyat, kasb, ijtimoiy hodisa yoki muayyan munosabatni ifodalashga moyildir (dehqonchilik, hunarmandchilik, tadbirkorchilik). Ayrim hollarda ular bir xil o'zak bilan qo'llanishi mumkin, biroq hosila so'zlarning semantik hajmi va qo'llanish chastotasi o'zaro farqlanadi. Bu esa sinonim affikslarning derivatsion imkoniyatlari teng emasligini ko'rsatadi [2;4-b.].

Yana bir muhim sinonimik qator *-siz* affiksi va *be-* old qo'shimchasi orqali hosil bo'ladi. Ular inkor yoki mavjud emaslik ma'nosini bildiradi: *foydasiz – befoyda*, *ma'nisiz – bema'ni*. Biroq bu birliklar barcha hollarda o'zaro almashina olmaydi. Masalan, *uysiz* so'zining o'rnida *beuy*, *suvsiz* o'rnida *besuv* shakllari adabiy til me'yoriga mos kelmaydi. Aksincha, *befarq, beodob, beminnat* kabi birliklarda *-siz* affiksi qo'llanmaydi. Demak, sinonimik munosabat mavjud bo'lsa-da, u affikslarning birikuv imkoniyatlari va tarixiy shakllanishi bilan chegaralanadi.

Shu o'rinda sinonimik munosabat hosil qiluvchi affikslardan yana biri *-chi* va *-uvchi (-vchi)* affikslaridir. Har ikkala affiks ham shaxsning kasbi, faoliyati yoki muayyan ish-harakat bilan shug'ullani-shini ifodalashda ishtirok etadi. Biroq ularning qo'llanishi bir xil emas. *-chi* affiksi ko'proq kasb, mash-g'ulot yoki muayyan faoliyat egasini bildiruvchi otlarni hosil qiladi (temirchi, zargar, quruvchi emas, balki temirchi, kulolchi emas – kulol kabi shakllarda ayrim tarixiy cheklanishlar mavjud). *-uvchi* affiksi esa asosan fe'l negiziga qo'shilib, harakatni bajaruvchi shaxsni ifodalaydi: o'qituvchi, kuzatuvchi, tinglovchi, yozuvchi. Demak, bu affikslar faqat ayrim semantik maydonlarda yaqinlashadi, biroq ularning derivatsion modeli va qo'llanish shartlari farqlanadi [3;5-b.].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sinonim affikslarning qo'llanishida mahsuldorlik muhim mezonlardan biridir. Masalan, *-lik* affiksi zamonaviy o'zbek tilida yangi mavhum otlarni hosil qilishda eng faol vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Aksincha, ayrim affikslar tarixiy taraqqiyot jarayonida o'z mahsuldorligini qisman yo'qotgan yoki qo'llanish doirasi toraygan. Natijada ma'no jihatdan yaqin affikslar orasida biri faol, ikkinchisi esa nisbatan cheklangan vosita sifatida qo'llanadi. Bu holat affiks sinonimiyasining dinamik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [2;6-b.].

Shuningdek, sinonim affikslarning tanlanishida til me'yori va an'ana muhim rol o'ynaydi. Nazariy jihatdan ma'no yaqinligi mavjud bo'lgan barcha affikslarni o'zaro almashtirish mumkin emas. Chunki har bir affiksning tarixiy shakllanishi, birikuv imkoniyati va semantik moslashuvi ma'lum qoliplarga ega. Shuning uchun sinonim affikslarni baholashda faqat umumiy ma'noga emas, balki ularning leksik moslashuvi, uslubiy vazifasi va qo'llanish chastotasi ham hisobga olinishi lozim. Aynan shu omillar affiks sinonimiyasining o'ziga xos lingvistik tabiatini belgilaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari o'zbek tilida affiks sinonimiyasi morfologik tizimning muhim hodisalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Sinonim affikslar umumiy semantik maydonga mansub bo'lsa-da, ularning qo'llanishi grammatik vazifa, leksik moslashuv, uslubiy xususiyat va kommunikativ ehtiyojlarga ko'ra farqlanadi. Shu bois affiks sinonimiyasini mutlaq emas, balki nisbiy va funksional hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar *-li* va *-dor*, *-lik* va *-chilik*, *-siz* va *be-* kabi affikslar ayrim ma'no maydonlarida sinonimik munosabat hosil qilishini, biroq ularning birikuv imkoniyati, semantik hajmi va qo'llanish doirasi bir xil emasligini ko'rsatdi. Bu esa affikslar o'rtasidagi sinonimik munosabatlarning tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari hamda adabiy til me'yorlari bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, affiks sinonimiyasi tilning uslubiy imkoniyatlarini kengaytirib, bir xil mazmunni turli derivatsion vositalar orqali ifodalash imkonini yaratadi. Sinonim affikslarning tanlanishi nutqning maqsadi, uslubi va kommunikativ vaziyatiga bog'liq bo'lib, bu holat ularning funksional differensiatsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek tili derivatsion tizimida affiks sinonimiyasining struktur-semantik va funksional xususiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Kelgusida sinonim affikslarni korpus lingvistikasi materiallari asosida o‘rganish, ularning qo‘llanish chastotasi va uslubiy taqsimotini statistik tahlil qilish ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada boyitishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1989, 168-бет.

(2). Нурмонов А., Маҳмудов Н., Собиров А., Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Илм зиё”, 2013, 576-бет.

(3). Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Тошкент, “Университет”, 2006, 47-бет.

(4). Маҳмудов Н. Тил. Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2013, 192-бет.

(5). Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 300-бет.

(6). Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек тили. Морфемика ва сўз ясалиши. Тошкент, “Fan”, 2000, 224-бет.

(7). Бўронов Ж. Ўзбек ва бошқа туркий тиллар қиёсий грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1973, 284-бет.

(8). Booij G. The Grammar of Words: An Introduction to Morphology. 3rd ed. 9. Oxford: Oxford University Press, 2012, 320 p.

(9). Lieber R. Introducing Morphology. 2nd ed. Cambridge, Cambridge University Press, 2016, 388 p.

(10). Katamba F. Morphology. London, Palgrave Macmillan, 1993, 360 p.

(11). Bybee J. Language, Usage and Cognition. Cambridge, Cambridge University Press, 2010, 278 p.

(12). Matthews P.H. Morphology. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 1991, 251 p.

(13). Aronoff M., Fudeman K. What is Morphology? 2nd ed. Oxford, Wiley-Blackwell, 2011, 240 p.

(14). Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed. Oxford, Blackwell Publishing, 2008,529 p.

Raximova Umida Soliyevna (Urganch RANCH Texnologiya universiteti dotsenti, PhD;
e-mail: umida1976@list.ru)

XX–XXI ASR ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ONA OBRAZINI O‘RGANISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Annotatsiya. *Maqolada XX–XXI asr zamonaviy adabiyotshunosligida ona obrazini o‘rganishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Ona obrazi ijtimoiy, madaniy, psixologik va falsafiy mazmunga ega bo‘lgan murakkab badiiy kategoriya sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqotda zamonaviy ingliz va amerika adabiyotida ona obrazining tipologik xususiyatlari, poetik funksiyalari, gender va identifikatsiya muammolari yoritilgan. Toni Morrison, Doroti Ellison, Doroti Uest, Sharlotta Perkins Gilman va Edit Uorton asarlari misolida ona obrazining tragik, ramziy, psixologik va ijtimoiy jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ona obrazi, onalik konsepsiyasi, poetika, gender, badiiy tipologiya, zamonaviy adabiyot, ingliz-amerika adabiyoti.*

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ОБРАЗА МАТЕРИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ XX–XXI ВЕКОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются актуальные проблемы изучения образа матери в современном литературоведении XX–XXI веков. Образ матери исследуется как сложная художественная категория, обладающая социальным, культурным, психологическим и философским содержанием. В исследовании раскрываются типологические особенности, поэтические функции образа матери, а также проблемы гендерной идентичности в современной английской и американской литературе. На примере произведений Тони Моррисон, Дороти Эллисон, Дороти Уэст, Шарлотты Перкинс Гилман и Эдит Уортон анализируются трагические, символические, психологические и социальные аспекты образа матери.*

Ключевые слова: *образ матери, концепция материнства, поэтика, гендер, художественная типология, современная литература, англо-американская литература.*

ACTUAL PROBLEMS OF THE STUDY OF IMAGE MATTER AND LITERATURE OF XX–XXI CENTURIES

Annotation. *The article examines the актуал issues of studying the image of the mother in modern literary studies of the 20th–21st centuries. The image of the mother is analyzed as a complex artistic category with social, cultural, psychological, and philosophical significance. The study explores the typological features, poetic functions, and gender identity issues related to the representation of the mother figure in contemporary English and American literature. Based on the works of Toni Morrison, Dorothy*